

O'ZBEK – TURK MAQOLLARINING KLASSIFIKATSIYASI

Oynisa XOJIYEVA *

Annotatsiya: Bu maqolada o'zbek va turk maqollarining xususiyatlari tahlilga tortilgan. Maqollarning umumiy xususiyatlari aniqlangan; ularning farqli va o'xshash jihatlari misollar bilan ochiqqlangan. Tahlil natijasida o'zbek va turk folkloridagi maqollarning tasnifi amalga oshirilgan. Har ikki xalq adabiyotidagi analogik tipdagi, sinonimik tipdagi va monologik tipdagi maqollar guruhlariga ajratilgan. Har bir tipdagi maqol turi misollar bilan izohlangan.

Anahtar Kelimeler: *maqol, folklor, turkiy xalqlar, klassifikatsiya.*

From Azerbaijan Karabakh to Konya Karabakh: Holiness in the Context of Public Diplomacy

Abstract: This article analyzes the characteristics of Uzbek and Turkish proverbs. Common features of proverbs are defined; their differences and similarities are explained with examples. As a result of the analysis, the classification of proverbs in Uzbek and Turkish folklore was carried out. Analogical type, synonymous type and monologist type proverbs in the literature of both nations are divided into groups. Each type of proverb is explained with examples.

Key Words: *proverb, folklore, Turkic nations, classification.*

Kirish

O'zbekiston dunyo hamjamiyati bilan faol integratsiyalashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Hamma sohalar kabi o'zbek adabiyoti va folklori ham dunyo xalqlarining madaniyatidan o'rin ola boshladi. Jumladan, o'zbek xalqi bilan mustaqillikning ilk yillaridanoq birinchilardan bo'lib aloqalarni o'rgatgan davlatlardan biri sifatida, shubhasiz, Turkiya bilan munosabatlari yanada mustahkamlanib bormoqda. Bu munosabatlar doirasida barcha jabhada bo'lgan kabi san'at, madaniyat va adabiyot sohasida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Zero, o'zbek va turk xalqlarining adabiy aloqalarining ildizi uzoq tarixga borib taqalishi sir emas.

O'zbek va turk xalqlari azaldan qondosh, jondosh, qardosh xalqlar bo'lib, ularning ko'p asrlik boy umumiy tarixi mavjud. Asrlar davomida bu ikki qadros xalq biri-birining adabiyotidan, ijodiy xazinasidan bahramand bo'lib, ta'sirlanib kelgan. Bugungi kunda turk tiliga tarjima qilinib, turk kitobsevarlariga taqdim etilayotgan o'zbek asarlari va o'zbek tiliga tarjima qilinib, o'zbek ijod olamini zabt etgan turk asarlari fikrimizning yaqqol isbotidir.

O'tgan asrning 90-yillarida o'zbek adabiyotining eng sara namunalari turk tiliga va turk adabiyotidagi go'zal asarlar o'zbek tiliga o'girildi. Abdulla Qodiriy, Oybek, O'tkir Hoshimov, Said Ahmad, Abdulla Qahhor kabi ijodkorlarimiz turk o'quvchilari uchun begona emasligi rost. Shuningdek, Orhan Pamuk, Mahmud Olaqosh, Ahmad Lutfi Qozonchi, Amina Shenliko'g'li, Sema Marashli, Elif Shafaq, Sabohiddin Ali kabi turk yozuvchilarini o'zbek kitobxonlari "o'ziniki" qilib ulgurdi. Turk adabiyoti atoqli o'zbek adiblarining eng mashhur asarlari bilan boyidi. Har ikkala xalqning folklori ham borgan sari ko'proq tarjima qilinib, xalqlarimiz orasidagi ijodiy hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi.

O'zbek va turk xalqlari orasidagi jadallik bilan rivojlanib borayotgan adabiy aloqalar, o'z navbatida, yangidan yangi dolzarb masalalarga diqqatimizni jalb qiladi. Ana shunday dolzarb va muhim masalalardan biri paremik birliklarni u yoki bu tilga to'g'ri va adekvat tarjima qilib, to'laqonli ifodalab berishda ko'rinadi. Maqol va iboralarni o'zbek tilidan turk tiliga yoki aksincha, turk tilidan o'zbek tiliga mukammal tarzda ifodalab berish folklorshunoslik, tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslikning umumiy muammolaridan biridir. Bu muammoni atroflicha o'rganib, uning qonuniyatlarini ishlab chiqish, savollariga javob topish folklorshunoslar va tarjimashunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Ushbu maqolada o'zbek va turk xalqlarining maqollariga oid ba'zi izlanishlar natijasi o'laroq, ikki xalq maqollarining klassifikatsiyasini qilishga urindik.

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, tayanch doktorant, O'zbekiston, niso-nur@mail.ru

1. Maqollar Qur'onga Kirmaydi, Ammo U Bilan Yonma-Yon Yuradi

“Maqol yaratmagan bironta til, maqol ishlatmagan bironta xalq yo'q” (Саломов, 1961: 18) deb yozadi taniqli tarjimashunos olim G'. Salomov.

Har bir xalq, har bir millatga xos yagona janr – maqol, desak aslo yanglishmaymiz. Shu bilan birgalikda, hech bir adabiy janr bir xalqning o'zligini, milliyatini maqollarchalik aniq ifodalab, namoyon qilib berolmasligi ham kunday ravshan. “Madaniyatning ajralmas qismi, tilning muhim qatlamini tashkil etib, asrlar osha hayotda sinalib, sayqallanib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan, xalqning muayyan voqea-hodisa haqidagi xulosalari, adolatli hukmi mujassam bo'lgan maqol va matallar bebaho ma'naviy boylik sifatida insoniyat tarixining barcha davrlari uchun mutlaq haqiqat, donolikning oliy nuqtasi hisoblanadi” (Хамидов, 2022: 3). Ilk bor turk maqollarini tizimli ravishda to'plab, nashr etgan Umar Osim Aksoy maqollarni muqaddaslashtirib, “Tangri va payg'ambar so'zlari kabi ruhiyatga ta'sir ko'ratuvchi kuchga ega” (Aksoy, 2020: 13) ligini ta'kidlaydi. Olim fikriga mashhur turk maqolini ham ilova qiladi: “Atalar sözü Kur'an'a girmez, yaninca yelişür” (Aksoy, 2020: 13) // “Atalar sözü Kur'an'a girmez, ama yaninca yürür (Aksoy, 2020: 13) (Maqollar Qur'onga kirmaydi, yonida (teppa-teng) yelib boradi // Maqollar Qur'onga kirmaydi, lekin (uning) yonida turadi (yuradi). Maqolni shartli ravishda “Maqollar Qur'onga kirmaydi, ammo u bilan yonma-yon yuradi” deb tarjima qilish mumkin. Umar Osim Aksoyning maqol haqidagi bu ta'rifi bejiz emas. Qur'on Allohning kalomi, hadis esa payg'ambarimizning so'zlari – har ikkisi-da insonlarning bu hayotda to'g'ri yashab, chiroyli umr kechirishi uchun yo'l ko'rsatuvchi xabarlar bo'lsa, maqollar ham ayni maqsadga xizmat qiluvchi xabarlar bo'lib, ularni bizga ota-bobolarimiz eslatma o'laroq qoldirganlar deya olamiz. Shuni ham ta'kidlash kerakki, biror maqol o'z-o'zidan dunyo yuzini ko'rmagan. Ularning har biri uzoq hayotiy tajriba va sinovlardan o'tib, keyingi avlodlarga saboq sifatida meros bo'lib kelmoqda. Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar asosida yuzaga kelganligi sababli o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi (Ўзбек халқ мақоллари, 1987: 12). Balki, shu jihatdan, maqollarni kishilar e'tiqodini haqqa yo'naltiruvchi muqaddas manbalar bilan yonma-yon qo'yish mumkin. Maqollarning aynan shu o'ziga xosligi, ya'ni tarbiyaviy ahamiyat tashishi sababidan ularning qadri yana ham ortadi. Ulardagi hikmatni anglab, amal qilganlar murodiga yetsa, aksincha, bepisand bo'lganlar pand yeyishi haqida ham aynan maqollarda eslatma bor:

Atalar sözünü tutmayanı yabana atarlar (Aksoy, 2020: 157).

(Maqolga amal qilmaganni kimsasiz qirda qoldiradilar)

Bu maqol otalarning hikmatga boy so'zlariga, ya'ni maqollarga bepisand bo'lib, o'gitlariga amal qilmagan, axloq qoidalaridan tashqariga chiqqan kimsalarning bora-bora yakkalanib qolishini uqtiradi.

Ko'rinib turibdiki, maqollar uzoq asrlik masofalar osha bizga yetib kelganiga qaramay, bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan, qolaversa, kelajak avlodga ham umr yo'lini yorituvchi shamchiroq bo'lib xizmat qila oladi.

2. O'zbek Va Turk Maqollarining Xususiyatlari

Folklorning eng qadimiy janri bo'lmish maqollarning o'tmish, bugun va kelajak uchun naqadar ahamiyatli hikmat bulog'i ekanligi inkor qilinmaydigan haqiqatdir. Ammo bugungi globallashuv zamonida maqollarning ham global doirada o'rganilishi folklorning muhim masalalaridan biriga aylanib ulgurdi. Jumladan, qardosh tillardagi maqol va hikmatlarning tilimizdagi maqollar bilan o'zaro munosabati tadqiqi qilinishi zarur bo'lgan muammolardan biridir. O'zbek va turk tillaridagi maqollarning o'xshash va farqli jihatlari, o'ziga xosligi-yu umumturkiy xususiyatlari mana shunday tadqiq qilinishi muhim bo'lgan masalalarning boshida keladi desak, yanglishmaymiz.

Maqollar turkiy xalqlarning avloddan avlodga o'tib kelayotgan umumiy boyligi bo'lish bilan birgalikda, tinimsiz yangilab, boyib, sayqallanib boradi. “Maqol ma'lum bir davr, aniq vaziyat, makon va zamonning ehtiyoji o'laroq yuzaga keladi. Biroq u hech ham o'sha

yaratilgan, tug'ilgan, aytilgan vaqt mazmuni bilan qolib ketmaydi. Nutq makoni va mazmuniga ko'ra yangilanib boraveradi. Bu esa maqollarning doimiy zamon bilan hamnafasligini ko'rsatadi" (Mirzaev, Sarimsoqov, 1987: 8).

Uzoq o'tmishda madaniyati, adabiyoti va san'ati bir bo'lgan bu ikki xalqning zamonlar o'tishi bilan turli ijtimoiy-siyosiy sabablar bilan bir-biridan uzoqlashishi ularning adabiyotida ham aks etadi. Jumladan, bu jarayon xalq adabiyotida – maqollarda ham kuzatiladi. Xalq maqollari o'zbek folklorida ham, turk folklorida ham shakl jihatdan jiddiy o'zgarishlarga uchramagan (zotan, maqollar folklorning eng kam transformatsiyaga uchraydigan jarni hisoblanadi). O'nlab sahifalarga sig'ishi mumkin bo'lgan ma'noni ikki-uch jumla, bir-ikki satrga jo qilgan maqollar hanuzgacha ixchamligini saqlab qolgani bilan xarakterlidir:

Gül dikensiz olmaz (Aksoy, 2020: 293). – Gul tikansiz bo'lmas (Шомақсудов ва б., 1990: 83).

Maqollar orasida parallelizmlar (Koyun can derdinde, kasap yağ derdinde // Echkiga jon qayg'usi, qassobga moy qayg'usi), tazod (Dost başa bakar, duşman ayağa // Do'st boshga qaraydi, dushman – oyoqqa), talmeh (Uch kishi bir bo'lsa, Biri – Xizir // Kul sıkışmayınca, Hızır yetişmez), alliteratsiya (Aşını, eşini, işini bil // Yaxshi yaxshiga yondashtirar, Yomon yo'ldan adashtirar), laff va nashr (Yaman komşu, yaman avrat, yaman at; birinden göç, birini boşa, birin sat), istiora (Delikli boncuk yerde kalmaz, deli kız evde kalmaz // Teshik munchoq yerda qolmas, Yerda qolsa, kimlar olmas), sa'j (Demir ıslanmaz, deli uslanmaz // O'qigan bilmas, uqqan bilar) kabi badiiy san'atlar har ikki xalq folkloridagi maqollarni bezaydi. Ammo shuncha o'xshashlik va umumiylikni o'zida jamlagan ikki xalq maqollarining o'ziga xos xususiyatlari, farqli jihatlari ham mavjud. Ularning o'xshash va farqli, umumiy va xususiy jihatlarni o'rganish bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Chunki o'zbek va turk maqollarining tizimli klassifikatsiyasi haligacha ishlab chiqilmagan.

3. Maqollar Klassifikatsiyasi

Biz o'zbek va turk maqollarining shakl va mazmunini tadqiq qilib, ularni shartli ravishda quyidagi uch katta guruhga ajratdik:

- I. **Analogik maqollar.** Bu guruhga har ikki xalqning folklorida mavjud bo'lgan ayni maqollarni kiritish mumkin. Ular ham shaklan, ham mazmunan bir-birini aynan takrorlaydi:

Akıl yaşta deęil, baştadır – Aql yoshda emas, boshda(dir).

Bu turdagi maqollar har ikki xalqda ayni mazmunni ifodalab, ayni maqsadda qo'llaniladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, analogik maqollar boshqa turdagi maqollarga nisbatan qadimiyroqdir. Ularning tarixiy-genetik jihatdan bir davr va bir makonga oidligini taxmin qilish mumkin; yaratilish tarixi esa umumturkiy madaniyatga borib taqalsa, ajabmas. Shu sababdan analogik maqollar u yoki bu ko'rinishda turli qadimiy manbalardan o'rin olganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk" asaridan o'rin olgan maqollarning aksari bugungi kunda nafaqat o'zbek va turk folklorida, balki barcha turkiy xalqlar adabiyotida uchraydi. Aynan shu sababdan, o'zbek va turk folklorida aynan bir-birini takrorlovchi bunday maqollarning boshqa turkiy xalqlarda ham jiddiy o'zgarishga uchramagan holda qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. Ular o'zbek xalq maqolining turk xalqiga o'tishi yoki aksi emas, balki, bir zamonlar bir xalq bo'lgan turkiylarning o'z otaso'zlaridir. Ularda turkiy xalqlarning ayni hayot tarzi, o'xshash dunyoqarashi, umumiy an'analari va yagona madaniy merosi o'z aksini topadi.

Ulardan ayrimlariga misollar keltirsak:

- I. **Ayaęını yorganına göre uzat.** (Aksoy, 2020: 164) – **Ko'rpangga qarab oyoq uzat.**

Bu maqol ham turk tilida, ham o'zbek tilida faol qo'llaniladigan, zamon va makon tanlamaydigan maqollar sirasiga kiradi. "Ehtiyojlaringni imkoniyatingga qarab belgila" ma'nosida ogohlantirish, tavsiya va maslahat mazmunini ifodalab keladi.

O'zbek maqollarining izohli lug'ati "Hikmatnoma"da "Ko'rpangga qarab oyoq uzat" maqolining etimologiyasi bir afsona bilan bog'lanadi:

"Qadim zamonda bir zolim podsho bo'lgan ekan. U xalqni xilma-xil yo'llar bilan qiynab, azoblab, shundan o'zi rohatlanar ekan. Kunlarning birida u: "Endi qanday qilsam xalqni qiynab, rohatlanaman" deb o'ylab-o'ylab, bir hiyla topibdi. Xalqqa: "Mening bo'yimga loyiq ko'rpa tikib kelinglar!" deb buyuribdi. Ertasiga odamlar podshoning bo'yiga taxminan tikkan ko'rpalarini ko'tarib, birin-ketin saroyga kirib kela boshlabdilar. Podsho ko'rpalarni birma-bir ustiga yopib ko'ra boshlabdi. Ko'rpa agar uzunroq bo'lsa, uni ataylab bosh tomoniga tortib, oyoqlarini cho'zib: "Iye, bu kalta-ku!" deb, agar kaltaroq bo'lsa, jo'rttaga oyoqlarini yig'ib olib: "Iye, bu uzun-ku!" deb baqiraveribdi va ko'rpalarning egalariga qirq darradan urishni buyuribdi. Shunda navbat bir cholga kelibdi. Podsho u keltirgan ko'rpani ustiga yopibdi-da, bosh tomonga tortib, oyoqlarini tizzasigacha ochib: "Iye, bu kalta-ku!" deb baqirgan ekan, sabr kosasi to'lib turgan chol qo'lidagi hassasi bilan podshoning oyoqlariga bir tushiribdi. Podsho birdan cho'chib, oyoqlarini yig'ib olibdi-da, cholga: "Nega oyog'imga urding?!" deb o'shqiribdi. Shunda chol: "Ko'rpangga qarab oyoq uzat-da!" debdi. Majozan: "O'z holingga, mablag'ingga, imkoniyatingga qarab ish ko'r" degan ma'noda qo'llaniladi (Шомақсудов ва Ё., 1990: 236). Yuqoridagi afsonaning haqiqatga qanchalik yaqinligini aniqlash, afsuski, imkonsiz. Maqolning paydo bo'lishiga aynan shunday voqea sabab bo'lganmi, yoki shunday vaziyatda o'rinli qo'llanilgan bu maqol sabab afsona el orasida yoyilganmi, buni ham bilolmaymiz. Katta ehtimol bilan, maqolning tarixi bu afsonadan ham uzoqqa borib taqaladi. "Devoni lug'otit-turk"da shu maqolga ham shaklan, ham mazmunan juda yaqin bo'lgan maqolning uchrashi fikrimizning isbotidir: "*Yogurkanda artuk ayak kösülse üşiyür*" (www.wikisource.org). "Ko'rpadan chiqib qolgan oyoq sovqotadi" ma'nosini beruvchi bu maqol ham ayni mazmunda qo'llaniladi.

Shuningdek, o'zbek tilida bu maqolning "Bo'yingga qarab to'n bich", "Qulochingga qarab ketmon chop" kabi variantlari ham majjud. Ammo turk tilida maqolning boshqa variantlari uchramaydi.

2. *Üzümü(nü) ye de bağıni sorma* (Aksoy, 2020: 454). – *Uzumini ye, bog'ini so'rama* (O'zbek xalq maqollari, 2019: 414).

Bu maqol ikki xalq folkloridan o'rin olgan majoziy ma'nodagi maqol bo'lib, unga har ikki xalq folklorida turlicha izoh berilgan. Umar Osim Aksoy "Önemli olan, sana bir nimetin gelmiş olmasdır. Ondan yararlanmaya bak. Nereden geldiğini bilmene gerek yoktur" (Aksoy, 2020: 454), ya'ni "Muhimi, bir ne'matning senga nasib qilgani. Undan foydalanishni o'yla. Qayerdan kelganini bilishingga hojat yo'q" deb izohlasa, "Hikmatnoma"da bu maqol o'g'ritabiat kimsalarning o'z xiyonati fosh bo'lishidan qo'rqib aytilgani ochiqlanadi (Шомақсудов ва Ё., 1990: 409). Yana bir turk manbasida esa bu maqolning etimologiyasi uzum bog'ini sotib olmoqchi bo'lgan ikki qo'shni va ular orasidagi ayyorona munosabat bilan bog'lanadi (Bulut, 2015: 181–182).

Har ikki holatda ham o'zida sirlilikni yashirgan bu maqol vaziyatga qarab ijobiy ma'noda ham, salbiy mazmunda ham ishlatilishi mumkin.

3. *İyilik yerde kalmaz. – Yaxshilik yerda qolmas.* Yaxshilik mavzusi adabiyotning asos mavzularidan biri bo'lib, jahon xalqlari folkloridan keng o'rin olgan. Mazmunan yuqoridagi maqolga yaqin turuvchi maqol, matal va hikmatli so'zlarni barcha xalqlar ijodida uchratishimiz shubhasiz. Bir-birini aynan so'zma-so'z takrorlagan yuqoridagi maqol esa ikki xalqning mushtarak o'tmishiga borib taqaluvchi umumiy madaniyati mahsulidir.

4. *Kalan işe kar yağar (turkcha) – Qolgan ishga qor yog'ar (o'zbekcha).* Har ishni kechiktirmasdan, ortga surib paysalga solmasdan o'z vaqtida bajarishga da'vat qiluvchi bu maqol ham o'zbek va turk xalqlarida ayni shakl va mazmunda o'z ifodasini topgan. Maqoldagi "qolgan" ("kalan") va "qor" ("kar") so'zlari orqali

ohandorlikka (alliteratsiya) erishilgan. Shuningdek, maqolda vaqtda qilinmay qolib ketgan ishning unut bo‘lib, butunlay bajarilmay qolishi mumkinligiga ham “qor” komponenti orqali ishora qilinadi. Zotan xalqimizda “*Qor yog‘di – iz bosildi*” maqoli ham uchraydiki, bu maqol yuqoridagi misolimiz bilan solishtirilsa, otaso‘zidagi “qor” so‘zining badiiy vazifasi yanada ayon bo‘ladi. Bu maqolda donishmand xalqimizning so‘z tanlashdagi injaligi, ixcham shaklda olam-olam mazmun yuklay olish mahorati namoyon bo‘ladi (Xojiyeva, 2023: 533).

5. Önce düşün, sonra söyle. – Avval o‘yla, keyin so‘yla.

So‘zlash insonning fahm-farosat darajasini belgilab beruvchi nozik chegaradir. Biroz oshirib yuborilgan nutq, bitta noo‘rin so‘ylangan so‘z insonni donolik martabasidan nodonlik “maqomi”ga tushirib qo‘yishi hech gap emas. Shuning uchun hamma zamonlarda hikmat egalari kamgaplikni, har bir so‘zni o‘ylab so‘zlashni yoqlab kelganlar; sergaplikdan, og‘ziga kelganni qaytarmay gapirishdan qaytarganlar. Hazrat Navoiy ham oz so‘zlash borasida “*Og‘ziga kelganni demak – nodonning ishi...*”, “*Ko‘p demak birla bo‘lmag‘il nodon...*” deb bot-bot tanbehlaydilar. Bu mavzudagi maqollarning turli variantlari ham mavjud bo‘lib, ular har ikki tilda faol ishlatiladi:

№	Turkcha	O‘zbekcha
1.	<i>Az söyle, çok dinle.</i>	<i>Oz so‘z – soz so‘z.</i>
2.	<i>Çok söyleyen çok yamılır.</i>	<i>Oz so‘zla, ko‘p ishla.</i>
3.	<i>Söz gümüſse sükut altındır.</i>	<i>So‘z – kumush, sukut oltindir.</i>
4.	<i>Söylemek gümüſse susmak altındır.</i>	<i>O‘n qatim o‘yla, bir qatim so‘yla.</i>
5.	<i>Az söyleyen çok rahat eder.</i>	<i>Og‘zimga keldi, deb dema, Oldimga keldi, deb yema.</i>
6.	<i>Az söz, çok iş.</i>	<i>O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir.</i>

Bunday maqollar har ikki xalq folklorida juda ko‘p uchraydi:

Kusursuz dost arayan dostsız kalır // Aybsız do‘st qidirgan do‘stsız qolar

Ne ekersen onu biçersen // Nimani eksang, shuni o‘lasan

Oğlan dayıya, kız halaya çeker // O‘g‘il tog‘aga, qiz ammaga tortadi (o‘xshaydi)

Para el kiridir // Pul qo‘lning kiridir

Sağ elin verdiğini sol elin görmesin // O‘ng qo‘ling berganini chap qo‘ling ko‘rmasin (bilmasin)

Yenilen güreşe doymaz // Yiqilgan kurashga to‘ymas

Bugünün işini yarına bırakma // Bugungi ishni ertaga qo‘yma

Bıcaq yarası geçer dil yarası geçmez // Tig‘ yarasi kechar, til yarasi kechmas

Bakarsan bağ, bakmazsan dağ olur // Boqsang – bog‘, boqmasang – tog‘

Akıl yaşta değil baştadır // Aql yoshda emas, boshda va hokazo.

II. Sinonimik maqollar. Bu tipdagi maqollarga ham taxiriy-genetik jihatdan yagona ildizdan o‘sib chiqqani ma‘lum, ammo vaqt o‘tishi bilan ba‘zi shakliy o‘zgarishlarga uchragan otaso‘zlarini kiritish mumkin. Bunda maqollar asl funksiyasini saqlab qolgan holda, har bir xalqning milliy koloriti, geografik o‘ziga xosliklari, shu xalqni tamsil etuvchi urf-odat va an‘analariga muvofiq tarnsformatsiyaga uchraydi. Lekin bu o‘zgarish maqolning mazmuniga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmaydi. Asarlarni u yoki bu tildan tarjima qilish jarayonida ham bunday maqollarni bir-birining o‘rnida qo‘llash mumkin, bu adekvat tarjima talablariga to‘la javob beradi. Chunki sinonimik maqolarda shaklan kichik farqlar kuzatilsa-da, maqol ma‘nosi va qo‘llanilish doirasi deyarli o‘zgarishsiz qoladi. Sinonimik tipdagi maqollarga ayrim misollarni ko‘rib chiqsak:

1. Yerin kulağı var. – Devorning qulog‘i bor.

Bu ikki maqol ham har yerda har so'zni so'zlab bo'lmasligi, inson gapirayotgan gapiga ehtiyot bo'lishi kerakligi haqida ogohlantiradi. Lekin maqollarning birida Yerning, boshqasida esa Devorning qulog'i borligi ta'kidlanadi. Buning sababini o'rganishga urindik. Ayrim manbalarda Yerin kulağı var (Yerning qulog'i bor) maqolining etimologiyasi mifologik qarashlar bilan bog'lanadi. Jeren Oqboş Erjan maqoldagi "Yer" aynan Yer Ona xudosi ekanligi haqida yozib, buni bir qancha dalillar bilan isbotlashga harakat qiladi: "Anlaşıldığı üzere Mitolojik Ana bir süre sonra Yer Ana adını almıştır. Yaşlı bir kadın olarak tasavvur edilmiştir. Yer Ana bu şekli atasözlerinde korunup günümüze kadar ulaşmıştır" (Ercan, 2020: 43) ("Anglashilganidek, Mifologik Ona ma'lum vaqtdan keyin Yer Ona deb atala boshlagan. Keksa bir ayol sifatida tasavvur qilingan. Yer Ona bu holatini maqollar yordamida bugungi kungacha saqlab kelgan"). Muallif turkiy xalqlarda uchraydigan "Saygarmanı söyleme, tamda gulak bar", "Görmediğini söyleme, odada kulak var", "Yerin kulağı var", "Cer kulağı ceti kat", "Yerin kulağı yedi kattır", "Yerin kulağı vardır", "Cer kulağı ceti kat", "Yer kulağı yedi kattır", "Keregede kulak bar, keñeşçi bolsoñ irak bar", "Yerin kulağı var, konuşacaksan uzak git", "Yerin kulağı var da duyar", "Yerin da kulakları vardır" maqollarining hammasini yuqoridagi fikr bilan bog'laydi (Ercan, 2020: 44). Ammo biz bu fikrning asosli deb topishimiz uchun argumentlar yetarli emasligini ham ta'kidlab o'tmoqchimiz. Nega aynan "yer"ning qulog'i borligiga kelsak, maqoldagi bu komponent, katta ehtimol bilan, bevosita turkiy xalqlarning ko'chmanchi hayot kechirgani bilan bog'liq deb o'ylaymiz. Ma'lumki, turkiy xalqlar ko'chmanchi xalqlar edi. O'z navbatida, muqim uy-joylari ham mavjud bo'lmagan. Maqolning yaratilish davri juda uzoq o'tmishga borib taqalishini hisobga olsak, bu maqol atrofi devorlardan iborat uylar mavjud bo'lmagan bir davrda paydo bo'lgan degan taxminni o'rta taqdim surish mumkin. Aynan shuning uchun aksar turkiy xalqlar folklorida bu maqolda devorning emas, balki "yerning qulog'i" borligi ifodalangan. O'zbek xalq og'zaki ijodidagi "Devorning qulog'i bor" maqoli ham dastlab "Yerning qulog'i bor" shaklida qo'llangan bo'lishi ehtimoldan uzoq emas. Keyinchalik, xalqimiz o'troqlashishi munosabati bilan uylar qurilgan va bu, o'z navbatida, maqollarda ham o'z ifodasini topgan. Maqoldagi bu o'zgarish jarayoni turk folklorida ham uchraydi: turk folklorida maqolning arxaik shakli saqlanib qolgan bo'lsa ham, aynan shu maqolning "Duvarın kulağı var, gözünü de unutma" (Aksoy, 2020: 248) varianti borligi so'zimizning isbotidir.

- 2. Bir fincan kahvenin kırk yıl hatırı var. – Bir kun tuz yegan joyingga qırq kun salom ber.** Bu ikki maqolda o'zbek va turk xalqining mehmondostlik an'analari o'z aksini topgan. Ma'lumki, turk xonadonida mehmon bo'lgan inson qahva ichmasdan ketmaydi. Shuning uchun turkcha maqolda bosh obraz sifatida **qahvaga** urg'u berilyapti. Turk mehmonnavislik an'anasida qahvaning alohida o'rni bor. Menmonlarni qahva bilan siylash alohida an'anaga aylanib ulgurgan. Hatto, qiymatli mehmonlarga alohida hurmat ma'nosida kundalik ishlatiladigan finjonlarda emas, maxsus finjonlarda qahva taqdim etish odati ham mavjudki (www.kulturportali.gov.tr), bu maqolda qahva komponentining ahamiyatini yanada yaxshiroq tushunishimizga yordam beradigan bir detaldir. O'zbeklar esa e'zozli mehmonni taomsiz uzatmaydilar. Mehmon kelishi bilan o'choqqa o't yoqiladi, qozonga masalliqlar solinib, qo'noqlar uchun issiq ovqat hozirlanadi. Odatlarimizga ko'ra, mehmon sharafiga issiq taom tayyorlash unga qanchalik izzat ko'rsatilganidan dalolatdir. Maqoldagi "tuz" so'zi metonimik hodisa bo'lib, (tuz qo'shiladigan) barcha **taom**lar ma'nosini ifodalab keladi. Umumiy olib qaraganda, har ikkala maqolning mazmuni bir xil – mehmon qilgan uy egalarining hurmatini saqlash!
- 3. Kabiliyetli çırak ustayı geçer. – Ustozidan o'tmagan shogird shogird emas.** Har ikki maqolda kichik shakliy tafovutlar borligi ularning orasidagi ma'no birligini yo'qqa chiqarmagan. Ikki maqolda ham ustoz – shogird (usta – çırak) munosabati, shogird oldida turgan ulkan mas'uliyatdan so'z boradi. Shogird ustozidan hunarni

o'rganibgina qolmay, undan ham o'zib ketishi uning yaxshi (qobiliyatli) shogird ekanligini belgilab beruvchi omil sifatida ilgari suriladi.

4. **Armudun iyisini aylar yer.** – **Qovunning yaxshisini it yeydi.** Bu maqollar eng yaxshi narsalarning ko'p hollarda nomunosib kishilarga nasib etishi haqida bo'lib, holat majozlar yordamida ta'sirchan va tushunarli tarzda anglatilgan. Maqollar orasidagi tafovutlarga kelsak, taxminimizcha, bu farqlar ikki xalq yashaydigan geografik hudud va uning tabiati bilan bog'liq. Asosan, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan o'zbek xalqining maqollarida poliz ekini asosiy komponent sifatida ko'rilsa, “nok”, “ayiq” kabi komponentlar Turkiyaning tog'li hududlari, o'rmon zonalarida yashaydigan aholining ijod mahsuli deb qarash to'g'ri bo'ladi, deb o'ylaymiz. Turk folklorida bu maqolning “*Ahlatin iyisini dağda aylar yer*” (Aksoy, 2020: 123) muqobili ham borki, bu maqolda fikrimizning isbotini yanada yaqqol ko'rish mumkin bo'ladi (Bu yerda ahlat – nokning yovvoyi turi).
5. **Arik ata kuyruğu (da) yüktür** (Hengirmen, 2011: 122). (Ozg'in otga (o'zining) dumi (ham) yukdir). Bu maqolda zaif, kuchsiz insonlar boshqalarga yordam berish tugul, o'z muammolarini ham hal qila olmasliklari haqida so'z boradi. Shu bilan birga, maqol bunday insonlarga rahm-shafqat qilish, ularga ortiqcha mas'uliyat yuklamaslikni ta'kidlash maqsadida ham ishlatiladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu maqol ham ancha qadimiy ekanligini qayd etishimiz lozim. Umuman, ot zoonimli maqollarning katta qismini qadimiy maqollar sirasiga kiritish mumkin. Ot zoonimli maqollar har ikki xalq folklorida talaygina. Shu sababdan o'zbek folklorida bu maqolning muqobilini topish u qadar qiyinchilik tug'dirmaydi: **Oriq otga qamchi yuk** maqoli yuqoridagi maqol bilan deyarli bir xil ma'noga ega. Shuningdek, maqolning boshqa turkiy xalqlar adabiyotida ham turli xil muqobillarini uchratish mumkin. Masalan, qozoq folklorida *Arik atka kamchi avir*, turkman folklorida *Argin ata gamçi artik* yoki *Eshege guyrugam yuktur*, qirg'iz folklorida *Arik atka kuruk juk*, boshqird folklorida *Arik atka kiryin da avir* shaklida tarqalgan bu maqol ojiz insonning nafaqat boshqalarga, hatto, o'ziga ham nafi tegmasligiga ishora qiladi. Bu maqollarning barchasi “Devoni lug'otit-turk”dagi maqolning (**Taz at tafarci bolmas**, ya'ni Ozg'in otda yuk tashib bo'lmas) turli o'zgarishlarga uchragan shaklidir (Xojiyeva, 2022: 54).

Tuzilishiga ko'ra nisbatan murakkabroq bo'lib, qo'shma gaplar bilan ifodalangan ayrim maqollarning qismlaridan biri u yoki bu tilda faol qo'llanilmaydigan holatlar ham mavjud. Bunga maqol qismlaridan biri o'zining ijtimoiy ahamiyatini yo'qotishiga boshqa qismining majoziy mazmuni yanada ahamiyatliroq bo'lishi sabab bo'ladi (Xojiyeva, 2023: 533). Masalan, turk tilidagi *Acı söz insanı dininden, tatlı söz yılanı deliğinden çıkarır* maqolining birinchi qismi o'zbek tilida uchramaydi. Uning ikkinchi qismi faol bo'lib, **Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar** shaklida ishlatiladi. Ba'zan bu maqolning davomi sifatida **yomon so'z bilan qilich qinidan chiqadi** gapi ham qo'shimcha qilinadi. O'zbek tilida bu maqolning *Yaxshi muomalaga tuya ham cho'kadi, Yaxshi so'z filni ham yo'lga solar, Sigirni ham silaa sut* beradi kabi alternativlari mavjud. Bu sinonimik qatorda **Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar** paremasida “ayyorlik, vahshiylik ma'no qirrasini bo'rtib turibdi” (Jo'rayeva, 2023:16). Yoki *Acı acıyı keser, su sancıyı* maqolini o'zbek tilida **Achchiqni achchiq kesadi** shaklida uchratamiz. Ikkinchi qismi bizda mavjud emas. Bu hodisaning aksini ham ko'rishimiz mumkin: **Teshik munchoq yerda qolmas, yerda qolsa, kimlar olmas** maqolining turk tilida birinchi qismi saqlanib qolgan: **Delikli taş yerde kalmaz** varianti bor.

Bunday maqollar orasida shakl jihatidan ko'zga ko'rinarli tafovutlar farqlansa ham, ularning mazmunida jiddiy farqlar kuzatilmaydi, ishlatilish maqsadi, o'rni va holati o'zgarishsiz qoladi deyish mumkin.

- III. **Monologik maqollar.** Turk folklorida ham, o'zbek folklorida ham genetik aloqalari kuzatilmaydigan, bir-biriga ham shaklan, ham mazmunan

o'xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan maqollar ham mavjudki, ular folklorning katta qismini tashkil qiladi. Maqollar orasidagi bunday jiddiy farqlarning sababini asosan ikki holat bilan izohlash mumkin: a) nisbatan keyinroq paydo bo'lgan zamonaviy maqollar; b) boshqa tillardan o'zlashib, tarjima qilingan maqollar. Bu kabi boshqa xalqlarda takrori uchramaydigan maqollar shu xalqning milliy koloritini ko'rsatib berishda asosiy rol o'ynaydi, ularda millatning o'ziga xos urf-odatları va an'anaları; qadriyatlarining parchalari jamlanadi:

1. **Denize düşen yılanın sarılır (Dengizga tushgan ilonni quchoqlaydi)** – maqol chorasiz qolgan, qiyin vaziyatga tushgan insonning yomon odamlardan ham yordam so'rashga majbur bo'lishi haqidagi achchiq haqiqatni aks ettiradi. O'zbek tilida **Cho'kayotgan inson xasga yopishadi** maqoli bor. Bu maqolda ham chorasizlikdan inson o'zini o'tga-cho'g'ga urishi gavdalangan. Lekin har ikkala maqol ma'no jihatidan bir-biriga to'liq mos emas. Farq shundaki, turk xalq maqolidagi **“ilon”** obrazi orqali yomon kimsalarga ishora qilinadi. O'zbek maqolidagi **“xas”** – foydasiz chiranishni bildirsa, **“ilon”** salbiy ma'no tashiydi. Shuni ham aytish kerakki, bu maqolda Turkiyaning geografik joylashuvi ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston dengizdan uzoq mintaqaga joylashgan, ammo Turkiyaning dengizlar mamlakati eaknligi ma'lum. Bu turk xalq maqollarida ham aks etmay qolmaydi, albatta.
2. **Gençlikte para kazan, kocalıkta kur kazan** (Aksoy, 2020: 285) maqolida keksalik g'amini yoshlikda yeyish kerakligi haqida tavsiya beruvchi o'git bo'lib, o'zbek xalq og'zaki ijodida bunga o'xshash maqollar talaygina, lekin ularning birortasi bu maqolni aynan takrorlamaydi. Maqolning diqqatga sazovor jihati bir satrda ikki badiiy san'atni jamlashida ko'rinadi. Gençlik – kocalık (yoshlik – keksalik) antonimlari asosida tazod san'atining go'zal namunasi yaratilgan bo'lsa, omonimik xususiyatga ega kazan (qozon) so'zining “erishmoq”, “muvaffaq bo'lmoq” ma'nosi bilan “ovqat pishiradigan idish” ma'nosi tajnis san'atiga asos bo'lgan. Maqolning boshqa bir variantida ham ayni badiiy san'atlar saqlanib qolgan: **Gençlikte taş taşı, kocalıkta ye aşı**. Maqoldagi taş (tosh) va taşı (tashimoq) so'zlari omonimik qatorni hosil qiladi va tajnis san'atiga misol bo'ladi.
3. **Bir deli kuyuya taş atmış kırk akıllı çıkaramamış (Bir ahmoq quduqqa tosh otibdi, (uni) qirq aqlli chiqara olmabdi** yoki **Bir ahmoqning quduqqa otgan toshini qirq aqlli chiqarolmabdi**). Ba'zan bir johil insonning qilgan ahmoqona ishini bir qancha oqil insonlar birlashib ham o'nglay olmasligi mumkin. Maqol shu haqida bo'lib, uni o'zbek tiliga tarjima qilib, amalda tatbiq etsak, xalqimiz so'z boyligini oshiradi.
4. **Öfkeyle kalkan zararlar oturur (Jahl bilan turgan zarar bilan o'tiradi** yoki **Jahl bilan harakatlangan zarar ko'rib qaytadi**). O'zbek tilida **Jahl kelsa, aql ketadi** maqoli mavjud bo'lsa ham, yuqoridagi maqolga to'la mos kelmaydi. Chunki maqolda jahl bilan qilingan ishning **oqibati** haqida so'z boradi.

Yuqorida namuna sifatida keltirilgan maqollarning har uch turiga ko'plab sanash mumkin. Muhimi, ular bilan bog'liq qonuniyatlarni aniqlash.

Xulosa

1. O'zbek va turk folklorida bir-birini so'zma so'z takrorlaydigan analogik tipdagi maqollar mavjud. Ular ikki xalqning umumiy tarixiy merosi hisoblanadi. Bunday maqollarning arxaiklashib, unutilib ketishining oldini olish bu merosni asrash bilan tengdir.
2. Sinonimik tipdagi maqollar ham ayni mazmun atrofida birlashadi, ham milliylikning eng go'zal namunasini o'zida jamlaydi. Ularning o'zaro muqobillaridan tarjima jarayonida to'g'ri foydalanish asarning adekvat tarjimasiga erishishda yordam beradi.
3. Monologik tipdagi maqollar har ikki xalq uchun muhim va yangi manba bo'lib, ularning to'g'ri tarjima qilinib, o'rinni qo'llanilishi ikki xalq adabiyoti va madaniyatining boyishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda har uchala tipdagi maqollarni o'zida jamlagan lug'atlarga ehtiyoj katta. Kelajakda bu ishni amalga oshirish ko'zda tutilgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Aksoy, O. A. (2020), Atasözleri ve deyimler sözlüğü, 1. Atasözleri sözlüğü, İstanbul, İnkilap Kitabevi Yayın ve Ticaret AŞ, 2020.
- Bulut, S. (2015), 101 Atasözü 101 Öykü. – İstanbul: Can Sanat Yayınları A. Ş., 2015. –S. 181 – 182.
- Ercan, C. A. (2020), Türk Dünyası Atasözlerinde Mitolojik İzler. Yüksek Lisans Tezi. Gazi: 2020. –S. 43-44.
- Hengirmen, M. (2011) Atasözleri sözlüğü. Ankara: Engin Yayınevi. 2011. –S. 122.
- Jo'rayeva, B. (2023) O'zbek xalq paremalarining sinonimik lug'ati. Toshkent: "Kafolat print company" nashriyoti, 2023. – B. 16.
- O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; Mas'ul muharrir: Sh. Turdimov. – Toshkent: "Sharq", 2019. –B. 414.
- Xojiyeva, O. O'zbek va turk maqollarining tipologiyasi. // "O'zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: 2023.
- Xojiyeva, O. O'zbek va turk maqollarining mushtarak ildizlari. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH. International scientific-online conference Part 1, Issue 6: JUNE 24th 2022. S. 54.
- Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари ва унинг ушбу нашри ҳақида / Ўзбек халқ мақоллари. I том. – Тошкент: Фан, 1987. –Б. 8.
- Саломов, Ғ. Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. – Тошкент: "Фан" нашриёти. 1961. –Б. 18.
- Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзб. Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990.
- Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: "Фан" нашриёти. 1987. –Б. 12.
- Ҳамидов, Х. Ўзбек қисса ва романлари турк тилида: монография. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: "EFFECT-D" нашриёти. 2022. –Б. 3.
- Dîvânü Lugâti't-Türk - Vikikaynak (wikisource.org)
- <https://www.kulturportali.gov.tr/portal/turkkahvesikulturuvegeleneği#:~:text=Kahve%20i%20C3%A7mek%20i%C3%A7in%20arkada%C5%9Flar%C4%B1%20davet,%C5%9Fekilde%20koyulur%20ve%20kurumaya%20b%C4%B1rak%C4%B1l%C4%B1r.>

